

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARINING
BOSHQARUV MADANIYATINI INNOVATSION YONDASHUVLAR
ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI**

Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

Annatotsiya: Maktabgacha ta'lism tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish masalalarini o'rghanish boshqaruv faoliyati metodologiyasiga murojaat qilishni, fanlararo tahlil qilish tadqiqot muammosi uchun zarur bo'lgan ilmiy asosni belgilab berishni talab qiladi. Maktabgacha ta'lism tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyalari boshqaruv va menejment fanining asosiy toifalari bilan uzviy bog'liqdir. Shu munosabat bilan boshqaruv kompetensiyasi mohiyatini, uning o'ziga xosligini, tarkibini o'rghanish boshqaruv faoliyati nazariyasi va amaliyotining ilmiy asoslarini tahlil qilishni talab qiladi.

Kalit so'zlar: Davlat, maktabgacha ta'lism, ish vaqt, talab, nizom, qonun-qoida, boshqaruv, menejment.

MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF THE MANAGEMENT CULTURE OF THE DIRECTOR OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION ON THE BASIS OF INNOVATIVE APPROACHES

Abstract: The study of the issues of the development of managerial competence of the head of a preschool educational organization requires an appeal to the methodology of managerial activity, an interdisciplinary analysis of which determines the scientific basis necessary for the research problem. Management competencies of the head of a preschool educational organization are inextricably linked with the main categories of management and Management Science. In this regard, the study of the

essence of management competence, its specificity, composition requires an analysis of the scientific foundations of the theory and practice of management activities.

Key words: State, preschool education, working hours, demand, regulation, rule of law, management, management.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar natijasida, jumladan, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “...maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish”[9] kabi yo‘nalishlar belgilangan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida boshqaruv faoliyatining ilmiy shartlarini anglashga alohida hissa tizimlar nazariyasining mantiqiy davomi bo‘lgan boshqaruvga vaziyatli yondashuvning mafkurasi kiradi. Ushbu yondashuvning mohiyati shundaki, turli xil vaziyatlarda bir xil boshqaruv harakatlarining natijalari bir-biridan farq qilishi mumkin. Ushbu yondashuv birinchi navbatda, boshqaruv funksiyalarini professional darajada bajaradigan rahbarning san’ati, vaziyatni tushunishi, uning xususiyatlarini ochib berish va tegishli yechimni tanlashdan iboratdir. Shuning uchun rejalashtirish, boshqarish yoki nazorat qilish kabi barcha kerakli boshqaruv harakatlarini amalga oshirishda rahbar o‘zi ishlayotgan vaziyatdan kelib chiqishi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarishmadaniyatining umumiyligi tahlili rahbarning boshqaruv faoliyati jarayonida bajaradigan funksiyalarini aniqlashga imkon beradi – bu rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish (yoki buyruq berish), motivatsiya, yetakchilik, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, qayta aloqa, tadqiqotlar, baholash, qarorlar qabul qilish, xodimlar bilan ta’minlash, vakillik muzokaralar olib borish yoki bitimlar tuzish va hokozo.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti to‘g‘risidagi namunaviy nizomda tashkilotning faoliyati demokratlashtirish va insonparvarlik tamoyillariga asoslanishi va asosiy

vazifalarni hal qilishi kerak: sog‘liqni saqlash; bolalarning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta’minlash; bolaning rivojlanishidagi kerakli tuzatish usullarini amalga oshirish; bolalarni umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish; bolaning to‘liq rivojlanishini ta’minlash uchun oila bilan o‘zaro munosabatlar.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti amalga oshirayotgan o‘quv dasturlarining sifati, qo‘llanilayotgan shakllar, o‘quv jarayonini tashkil etish usullari va vositalari, yoshiga, psixofiziologik xususiyatlariga, moyilligi, qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga muvofiqligi, o‘quv jarayonida bolalar va tashkilot xodimlarining hayoti va sog‘lig‘i uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilab berilgan.

Shunday qilib, zamonaviy nazariya va amaliyotda menejmentga ilmiy yondashuvlar va ta’limning o‘zgargan modeli haqidagi jahon va mahalliy fanlarda shakllangan g‘oyalar ta’siri ostida pedagogik jarayonni boshqarish masalalari jadal rivojlanmoqda. Shu bilan birga, shuni ta’kidlash kerakki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqaruv madaniyati – bu jamiyat nomi va mazmuni jihatidan nisbatan yangi muammo bo‘lib, u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlari va ta’lim tizimini isloh qilish davrida alohida e’tiborga loyiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.Третьяков П.И., Белая К.Ю. Дошкольное образовательное учреждение: управление по результатам / П.И.Третьяков, К.Ю.Белая. – М. : Сфера, 2007. – 240
- 2.Мескон Майкл Х., Альберт Майкл, Хедоури Ф. Основы менеджмента, 3-е изд.: Пер. с англ.-М.:ООО «И. Д. Вильямс», 2007. с.254.
- 3.Азизходжаева Н.Н. Формирование профессиональных компетенций будущих специалистов. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. Вып. 12. Ч.1. СПб, 2014. – 63 с.
- 4.Akramova, D. (2022). Bo‘lajak pedagog-psixologlarning maktabgacha ta’lim tizimidagi faoliyati. Science and innovation, 1(B8), 322-326.
- 5.Akramova, D. (2022). Oliy ta’lim muassalari talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. Science and innovation, 1(B8), 2150-2153.

6.Abdiyeva, F. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORLARINING BOSHQARUV MADANIYATINI TAKOMILLA ShTIRISH. Science and innovation, 1(B8), 2154-2156.

7.Yoziyeva, U., & Abdieva, F. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkiloti samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muammolari. Obchestvo i innovatsii, 2(11/S), 111-114.